

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.32/30.07.2024.Yu.74.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI**

ISMAILOV AHMAD

**VOYAGA YETMAGANLARNI O‘ZINI O‘ZI O‘LDIRISH DARAJASIGA
YETKAZISH VA UNDASH JINOYATLARI PROFILAKTIKASI**

12.00.14 – Huquqbuzarliklar profilaktikasi. Jamoat xavfsizligini ta’minlash. Probatsiya faoliyati

Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Toshkent shahri – 2025

Doktorlik (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской диссертации (PhD)

Content of the abstract of the doctoral (PhD) dissertation

Ismailov Ahmad

Voyaga yetmaganlarni o‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazish va undash jinoyatlari profilaktikasi..... 3

Исмаилов Ахмад

Профилактика преступлений, связанных с доведением и склонением несовершеннолетних к самоубийству 23

Ismailov Akhmad

Prevention of crimes related to incitement to suicide or inducement of suicide of minors..... 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 43

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.32/30.07.2024.Yu.74.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

ISMAILOV AHMAD

VOYAGA YETMAGANLARNI O‘ZINI O‘ZI O‘LDIRISH DARAJASIGA
YETKAZISH VA UNDASH JINOYATLARI PROFILAKTIKASI

12.00.14 – Huquqbuzarliklar profilaktikasi. Jamoat xavfsizligini ta’minlash. Probatsiya faoliyati

Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Toshkent shahri – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyada B2023.2.PhD/Yu1075 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) bajarilgan. O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetida veb-sayti (www.mgjxu.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Taxirov Farxod

yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Turg‘unov Oybek Karimovich

yuridik fanlar doktori, professor

Muxiddinov Abror Hikmat o‘g‘li

yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.32/30.07.2024.Yu.74.03 raqamli ilmiy Kengashning 2025-yil «25»-iyun kuni soat 15:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100211, Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Chorsu qo‘rg‘oni. Tel: +998971 230-32-71; faks +99871 230-32-50; Jxu@umail.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100211, Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Chorsu qo‘rg‘oni. Tel: +99871 230-32-71; faks +99871 230-32-50)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil « ____ » _____ da tarqatildi.

(2025-yil « ____ » _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

D.M.Mirazov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, yu.f.d., professor

M.I.Maxsadov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, yu.f.d., dotsent

N.I.Xayriyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o‘rinbosari, yu.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda voyaga yetmaganlarning o‘z joniga qasd qilish holatlari, umumiy o‘lim ko‘rsatkichining ro‘yxatida 8-o‘rinni, zo‘ravonlik natijasida kelib chiqadigan o‘limlar orasida esa 1-o‘rinni egallamoqda. Dunyo bo‘ylab har yili 3,3 milliondan oshiq odam suitsid orqali hayotdan ko‘z yummoqda¹. Bu esa o‘z navbatida dunyo bo‘ylab o‘rtacha har 30-35 soniyada bir kishi o‘z joniga qasd qilishiga tengdir. Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti ma‘lumotlariga ko‘ra, “...har yili o‘n milliondan yigirma millionga yaqin voyaga yetmaganlar o‘zini-o‘zi o‘ldirishga urinadi”². Bugungi kunda suitsidlarning asosiy sabablaridan biri bu – voyaga yetmagan shaxslarga rahmsiz muomala qilish yoki uning sha‘ni va qadr-qimmatini muttasil ravishda kamsitish orqali ularga salbiy ta‘sir ko‘rsatish hisoblanadi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi bilan virtual makon va virtual maydonda voyaga yetmaganlarni o‘zini o‘zi o‘ldirishga ko‘ndirish, aldash yoki boshqa yo‘l bilan bunday shaxsda o‘zini o‘zi o‘ldirish hissini uyg‘otuvchi turli xildagi materillarni tarqatish orqali sodir etish holatlari ko‘paymoqda va shu sababli bu kabi jinoyatlarning zamonaviy profilaktik choratadbirlarini ilmiy jihatdan tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda voyaga yetmaganlarni o‘z joniga qasd qilishiga sabab bo‘luvchi turli tahdidlar, rahmsiz muomala, sha‘n va qadr-qimmatning muntazam ravishda kamsitilishi va boshqa shunga o‘xshash zo‘ravonliklar uchun javobgarlik va jazo belgilash, jinoyat qonuni tegishli normalarini takomillashtirish, hayotga qarshi jinoyatlarni profilaktikasi hamda huquqbuzarliklarni oldini olishda xalqaro tajribalarni tadqiq etish va bu borada davlatlararo hamkorlikni kuchaytirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, voyaga yetmaganlarni o‘z joniga qasd qilish darajasiga yetkazish va undash jinoyatlarini profilaktikasini ilmiy va amaliy nuqtai nazardan tadqiq etish bo‘yicha Vilnyus xalqaro universiteti (Santara Clinics, Litva), Amerika bolalar va o‘smirlar psixiatriyasi akademiyasi (AQSh), Psixiatriya va o‘z joniga qasd qilish Karolin tadqiqot instituti (Shvetsiya), Kolumbiya universiteti (AQSh) va boshqa ilmiy-tadqiqot muassasalarida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Mamlakatimizda voyaga yetmaganlarning o‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazish va undash jinoyatlarning profilaktikasiga doir o‘ziga xos milliy tizim va normativ-huquqiy asoslar yaratilib, uni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishga ahamiyat berilganligi natijasida fuqarolarni turli huquqbuzarliklar va jinoyatlardan muhofaza qilish masalalariga davlat siyosati darajasida e‘tibor qaratilmoqda. Biroq olib borilayotgan say-harakatlarga qaramasdan “mintaqamizda 1990–2023 yillarda o‘zini o‘zi o‘ldirish ko‘rsatkichi 11 foizga ko‘paygan”³. Bu esa shaxsning o‘z joniga qasd qilishiga sabab bo‘layotgan zo‘rluk ishlatishga qarshi kurashishning jinoyat-huquqiy hamda profilaktik choralarni takomillashtirish zarurati mavjudligini ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi (2008), “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning

¹ ria.ru/society/20080131/98082091.html.

² <https://www.who.int/ru/news-room/fact-sheets/detail/suicide>

³ Самоубийства в Центральной Азии (инфографика). <https://caa-network.org/file:///Network.html>.

profilaktikasi to‘g‘risida”gi (2010), “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi (2014) Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27-sonli, 2021-yil 26-martdagi “Jamoat xavfsizligini ta‘minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6196-sonli, 2024-yil 15-yanvardagi “Jamoat xavfsizligini ta‘minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasini ilmiy tadqiq qilish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-10-sonli Farmonlari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-aprel kunidagi “Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta‘minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5050-sonli, 2021-yil 15-apreldagi “Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5076-sonli, 2025-yil 3-yanvardagi “2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-1-sonli Qarorlari hamda sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda voyaga yetmaganlarning o‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazish va undash jinoyatlarning profilaktikasiga oid ayrim jihatlarni mamlakatimiz olimlaridan Q.R.Abdurasulova, I.Ismaliyov, R.Kabulov, M.Musayev, A.M.Musayev, A.Sh.Murodov, A.X.Muxitdinov, S.S.Niyozova, A.S.Yakubov, M.X.Rustambayev, A.K.Rasulyev, Q.A.Saitqulov, F.Taxirov, M.Q.O‘razaliyev, M.K.Uteniyazov M.Z.Ziyodullayev, A.G.Zakirova va boshqa olimlar tomonidan o‘rganilgan.

MDHga a‘zo davlatlarda voyaga yetmaganlarning o‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazish va undash jinoyatlarning profilaktik jihatlariga oid izlanishlarni R.Z.Avakyan, A.V.Agafonov, I.A.Aliyev, Y.M.Antonyan, V.M.Bozrov, S.V.Borodin, Ya.I.Gilinskiy, M.I.Yenikeyev, N.I.Zagorodnikov, O.S.Kapinus, A.N.Krasikov, N.S.Leykina, G.M.Minkovski, I.Paperno, E.F.Pobegaylo, V.I.Radchenko, L.V.Serdyuk, N.S.Tagansev, Ye.V.Buryakovskayalar tomonidan tadqiq etilgan.

Xorijiy mamlakatlarda voyaga yetmagan shaxslarni o‘z joniga qasd qilish darajasiga yetkazish yoki undash jinoyatlarining profilaktik xususiyatlariga oid tadqiqotlarni Guyora Binder, Luis Chiesa, Rajeev Ranjan, Saurabh Kumar, Raman

Deep Pattanayak, Anju Dhawan, Rajesh Sagar, Johan Bilsen, Ronja Helensdotter va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan¹.

Biroq mamlakatimizda sud-huquq, xususan, jinoyat-huquqiy islohotlar natijalari, amaldagi yangilangan normativ baza va qonunni qo'llash amaliyoti, ayrim rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasini hisobga olgan holda aynan voyaga yetmaganlarning o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish yoki undash jinoyatlarining profilaktikasi bo'yicha kompleks tadqiqotlar o'tkazilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti "O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Voyaga yetmaganlarni o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish va undash jinoyatlari profilaktikasi" mavzusi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi voyaga yetmaganlarning o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish va undash jinoyatlarning profilaktikasini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari:

voyaga yetmaganlarni o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish va undash jinoyati tushunchasini tahlil etish;

voyaga yetmaganlarni o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazganlik yoki undaganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan qonun normalarining rivojlanish tarixi tadqiq etish;

voyaga yetmaganlarni o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish yoki undashning kelib chiqish sabablari va uning imkon bergan shart-sharoitlarning xususiyatlarini tahlil qilish;

voyaga yetmaganlarni o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish yoki undagan jinoyatchi shaxsini tavsifini tadqiq etish;

voyaga yetmaganlarni o'z joniga qasd qilishning viktimologik tavsifini tahlil etish;

voyaga yetmaganlarni o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish yoki undash jinoyatining profilaktik choralarini aniqlash;

voyaga yetmaganlarni o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish yoki undash jinoyatining profilaktikasiga oid ayrim xorijiy davlatlar amaliyotini o'rganish va amaliyot natijalarini tahlil qilish asosida mazkur faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obykti sifatida voyaga yetmaganlarning o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish yoki undash jinoyatlarining profilaktikasi bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar olingan.

Tadqiqotning predmetini voyaga yetmaganlarning o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish yoki undash jinoyatlari profilaktikasini amalga oshirishni nazarda tutuvchi qonunchilik normalari, mazkur jinoyatlarning profilaktikasi va sud-tergov amaliyoti, ayrim xorijiy davlatlarning sohaga oid tajribasi, xalqaro huquqning

¹ Bu va boshqa manbalar dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan

umume'trof etilgan normalari hamda yuridik fanda mavjud konseptual yondashuvlar va ilmiy-nazariy qarashlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda bilishning ilmiy usullari bo'lgan – tarixiylik, mantiqiy-yuridik, formal, kuzatish, qiyosiy-huquqiy va tizimli tahlil, statistik usullar, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, anketa so'rovlari, statistik ma'lumotlar tahlili, funksional yondashuv, huquqni qo'llash faoliyati tahlili, sud-tergov amaliyoti hamda jinoyat ishlarini o'rganish va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bolalarni ularning hayotiga va (yoki) sog'lig'iga xavf soladigan xatti-harakatlarni sodir etishga, shu jumladan o'z sog'lig'iga zarar yetkazishga, o'z joniga qasd qilishga va shunday harakatlarni targ'ib qilishga undaydigan axborot mahsuloti tarqatilishi ijtimoiy xavfliligi tufayli mazkur harakatlarni huquqiy jihatdan taqiqlash zarurati asoslantilgan;

bolalarda qo'rquv, vahima yoki sarosima uyg'otadigan, shu jumladan kuch ishlatilmagan o'limni, kasallikni, o'z joniga qasd qilishni, baxtsiz hodisani, avariyan yoki falokatni va (yoki) ularning oqibatlarini inson qadr-qimmatini kamsitadigan shaklda tasvirlash yoki bayon etish tarzida taqdim etilishi bilan bog'liq axborot mahsuloti tarqatilishi huquqiy jihatdan taqiqlanishi zarurati asoslantilgan;

zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan voyaga yetmaganlarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish hamda o'z joniga qasd qilishning oldini olish maqsadida respublika markazi negizida tashkil etilgan hududiy markazlar faoliyatida professional psixologlar va professor-o'qituvchilar seminar treninglar tashkil etishi orqali voyaga yetmaganlarni o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish va undash jinoyatlari profilaktikasida samara berishi asoslantirilgan;

voyaga yetmaganlarni o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish va undash jinoyatlarini oldini olishda ota-onalarni yoki ularni o'rinini bosuvchi shaxslar orasida profilaktik chora-tadbirlar amalga oshirish muhim faktor ekanligi isbotlangan;

bolalar huquqlari himoyasini ta'minlaydigan mexanizmlarni o'z vaqtida amalga oshirilishi, ularni o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish va undash jinoyatlari qurboni bo'lishini oldini olishga xizmat qilishi asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

voyaga yetmaganlarni o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish va undash jinoyatlarini profilaktikasini samarali yo'lga qo'yish uchun "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun loyihasi ishlab chiqilgan;

"Voyaga yetmaganlarning o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish va undash" tushunchasiga mualliflik ta'rif berilgan;

voyaga yetmaganlarning o'zini o'zi o'ldirishga targ'ib qilish (reklama) uchun javobgarlik belgilanishining ijtimoiy zarurati aniqlangan;

voyaga yetmaganlarning o'z joniga qasd qilishining ijtimoiy muammolarni kelib chiqish sabablari: oiladagi nosog'lom muhit; o'smirlarning turli jinoiy guruhlariga qo'shilib qolishi; o'z-o'zini noto'g'ri anglashi; o'ziga nisbatan bo'lgan bahosining o'ta past yoki o'ta yuqoriligi; nosog'lom jinsiy rivojlanish; ijtimoiy rollarni noto'g'ri anglashi ekanligi asoslangan;

“Voyaga yetmaganlarni o‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazish va undashni sodir etgan jinoyatchi shaxsi”ga mualliflik ta’rifi berilgan;

voyaga yetmaganlarni o‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazish va undashdagi jabrlanuvchi shaxsiga mualliflik ta’rifi berib, ularning toifalarini ajratish lozimligi asoslantirildi;

O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida” Qonunining “Asosiy tushunchalar” deb nomlangan 3-moddasini tadqiqot ishida ko‘rsatib o‘tilgan bolalarga nisbatan ishlatiladigan zo‘ravonlik turlarini aniqlashtiruvchi tushunchalar bilan to‘ldirish lozimligi asoslantirilgan.

O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga “47⁶-modda. Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish” uchun ma‘muriy javobgarlik belgilash zarurati isbotlangan;

voyaga yetmaganlarning o‘z joniga qasd qilishning oldini olish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi 47-moddasining beshinchi qismini “Ota-onalar yoki qonuniy vakillar tomonidan bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazadigan axborotdan himoya qilishning tashkiliy choralarini ko‘rmaslik” hamda “voyaga yetmagan shaxsning g‘ayriijtimoiy harakatlar sodir etishiga olib kelishi” nazarda tutilgan oltinchi qismlar bilan to‘ldirish lozimligi asoslangan;

voyaga yetmaganlarning o‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazish va undash jinoyatining viktimologik profilaktikasi chora-tadbirlari ishlab chiqildi.

Tadqiqotning ishonchliligi. Tadqiqot natijalari xalqaro huquq va milliy qonun normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, qonunni qo‘llash amaliyotiga asoslangan. Shuningdek, sotsiologik tadqiqotlar, anketa so‘rovi (211 nafar sud-tergov amaliyoti xodimlari ishtirokida) o‘tkazilgan, statistik ma‘lumotlar va 200 dan ortiq jinoyat ishlari va sud hukmlarining tahlili natijalari umumlashtirilib, tegishli hujjatlar rasmiylashtirilgan. Xulosa, taklif va tavsiyalar aprotatsiyadan o‘tkazilib, ular yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e‘lon qilingan. Olingan natijalar vakolatli davlat idoralari tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining *ilmiy ahamiyati* ishdagi, xulosa, taklif va tavsiyalardan, jinoyat huquqi, kriminologiya va viktimologiyani takomillashtirishda, sohaga oid nazariy bilimlarni boyitishda va yangi ilmiy tadqiqotlar o‘tkazishda foydalanish mumkinligida ko‘rinadi.

Tadqiqot natijalarining *amaliy ahamiyati* shundaki, voyaga yetmaganlarni o‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazish yoki undash jinoyatlarini oldini olishda, qonun ijodkorligida, Jinoyat kodeksi hujjatlarining tegishli normalarini sharhlashda, milliy qonunchilikni takomillashtirish va “Jinoyat huquqi”, “Kriminologiya”, “Viktimologiyani”, “Huquqbuzarliklar profilaktikasi” kabi fanlarni o‘qitishda, ushbu fanlar bo‘yicha darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar va metodik materiallar tayyorlashda qo‘llash mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot ishi bo‘yicha olingan ilmiy natijalardan quyidagilarda foydalanilgan:

bolalarni ularning hayotiga va (yoki) sog‘lig‘iga xavf soladigan xatti-harakatlarni sodir etish va targ‘ib qilishga undaydigan ma‘lumotlar tarqatilishini

huquqiy jihatdan taqiqlash bo'yicha bergan taklifi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 8-sentabrdagi "Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ-444-son Qonuning 16-moddasi ikkinchi qismini 1-bandini shakllantirishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Qonunchilik palatasining 2023-yil 30-oktabrdagi 02/6-09-26-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning qabul qilinishi bolalarni ularning hayotiga va (yoki) sog'lig'iga xavf soladigan xatti-harakatlarni sodir etish va targ'ib qilishga undaydigan ma'lumotlardan himoya qilish orqali o'zini o'zi o'ldirish yoki undash jinoyatlarni oldini olishiga xizmat qilgan;

bolalarda qo'rquv, vahima yoki sarosima uyg'otadigan, shu jumladan kuch ishlatilmagan o'limni, kasallikni, o'z joniga qasd qilishni, baxtsiz hodisani, avariyan yoki falokatni va (yoki) ularning oqibatlarini inson qadr-qimmatini kamsitadigan shaklda tasvirlash yoki bayon etish tarzida taqdim etilishini huquqiy jihatdan taqiqlash bilan bog'liq taklifi O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 8-sentabrdagi "Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ-444-son Qonuning 16-moddasi ikkinchi qismi 12-bandini shakllantirishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Qonunchilik palatasining 2023-yil 30-oktabrdagi 02/6-09-26-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning qabul qilinishi bolalarda qo'rquv, vahima yoki sarosima uyg'otadigan, shu jumladan kuch ishlatilmagan o'limni, kasallikni, o'z joniga qasd qilishni targ'ib qiluvchi materiallarni tarqalishini oldini olishga va shu orqali profilaktik chora-tadbirlar belgilanishiga huquqiy asos yaratgan;

zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan voyaga yetmaganlarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish hamda o'z joniga qasd qilishning oldini olish maqsadida respublika markazi negizida tashkil etilgan hududiy markazlar faoliyatida professional psixologlar va professor-o'qituvchilar tomonidan seminar treninglar tashkil etishi lozimligi bilan bog'liq taklifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 6-oktabrdagi "Zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish hamda o'z joniga qasd qilishning oldini olish borasidagi ishlarni takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 625-sonli Qarorining 5-bandi uchinchi xatboshisini shakllantirishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 8-oktabrdagi 16-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning qabul qilinishi zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish hamda o'z joniga qasd qilishning oldini olish respublika markazi negizida tashkil etilgan hududiy markazlar faoliyatida professional psixologlar va professor o'qituvchilar seminar treninglar tashkil etish orqali voyaga yetmaganlarni o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish va undash jinoyatlarini oldi olinishida profilaktik chora sifatida xizmat qilgan;

voyaga yetmaganlarni o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish va undash jinoyatlarini oldini olishda ota-onalarni yoki ularni o'rinini bosuvchi shaxslar orasida profilaktik chora-tadbirlar amalga oshirish lozimligi borasidagi takliflaridan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 6-oktabrdagi "Zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish hamda o'z joniga qasd qilishning oldini olish borasidagi ishlarni takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 625-sonli Qarorning ilovasi "Xotin-qizlar

o‘rtasida o‘z joniga qasd qilishning oldini olish bo‘yicha” chora-tadbirlar dasturi 2-bo‘lim 10-bandini shakllantirishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 8-oktabrdagi 16-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning qabul qilinishi ota-onalarni yoki ularni o‘rinini bosuvchi shaxslar orasida profilaktik chora-tadbirlar amalga oshirish orqali ular tomonidan voyaga yetmaganlarni o‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazish jinoyatlarini oldini olish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar belgilanishiga xizmat qilgan;

bolalar huquqlari himoyasini ta’minlaydigan mexanizmlarni o‘z vaqtida amalga oshirilishi bilan bog‘liq taklifi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 6-oktabrdagi “Zo‘rluk ishlatishdan jabr ko‘rgan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish hamda o‘z joniga qasd qilishning oldini olish borasidagi ishlarni takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 625-sonli Qarorning ilovasi “Xotin-qizlar o‘rtasida o‘z joniga qasd qilishning oldini olish bo‘yicha” chora-tadbirlar dasturi 2-bo‘lim 11-bandini shakllantirishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 8-oktabrdagi 16-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning qabul qilinishi voyaga yetmaganlarni o‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazish va undash jinoyatlarini sodir etilishi omillaridan hisoblangan bola huquqlarining buzilish holatlarini bartaraf etish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar belgilanishiga huquqiy asos yaratgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni va ilmiy natijalari 2 ta xalqaro, 5 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyada sinovdan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish nashr etilgan. Shundan 1 ta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta (shundan 1 ta xorijiy) jurnallarda maqolalar chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, yettita paragrafni o‘z ichiga olgan uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Ishning hajmi 129 bet.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi) qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, natijalarining e‘lon qilinganligi, dissertatsiya hajmi va tuzilishi yoritilgan.

Dissertatsiyaning **“Voyaga yetmaganlarni o‘z joniga qasd qilish darajasiga yetkazish yoki undash jinoyatlarining nazariy tavsifi”** nomli birinchi bobida voyaga yetmaganlarni o‘z joniga qasd qilish tushunchasi, voyaga yetmaganlarni o‘z

joniga qasd qilish darajasiga yetkazish yoki undaganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan qonun normalarining rivojlanish tarixi o'rganilgan.

Muallif ushbu bobda voyaga yetmaganlar, ularni o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish va undash o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish va undash kabi tushunchalarni tahlil qilib, *“Voyaga yetmaganlarning o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish va undash”* tushunchasiga quyidagi mualliflik ta'rifini taklif qilgan. *“..... – voyaga yetmagani qo'rqitish, unga shantaj qilish, shafqatsiz muomala qilish ya'ni, u bilan qo'pol va ayovsiz munosabatda bo'lish, kaltaklash, hayot uchun zarur va muhim narsa yoki sharoitlardan mahrum etish orqali unga jismoniy yoxud ruhiy azob yetkazish, shuningdek uning sha'ni va qadr-qimmatini muttasil ravishda tahqirlash, jumladan unga tuhmat qilish, haqoratlash, ta'qib etish va uni ko'ndirish, aldash yoki boshqa harakatlar natijasida o'z joniga qasd etish yoki o'zini o'zi o'ldirishga urinishiga olib kelishdan iborat jinoiy qilmish”*.

Dissertant o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish yoki undash uchun javobgarlik belgilanishining ijtimoiy zaruratini o'rganib, kishilik jamiyati rivojining turli bosqichlarida inson va uning hayoti, yashash huquqiga oid munosabatlarning shakllanishini shuningdek, qadimdan yashash huquqi eng ustuvor qadriyatlaridan biri ekanligi bilan bog'lab tadqiq qilingan. O'zbekiston davlatchiligi tarixida jinoyat va jazo belgilangan qonunlar rivojini to'rt davrga ajratib o'rganilgan: islomgacha bo'lgan davr (VII-asr oxiriga qadar), shariat normalari amalda bo'lgan davr (VII-asr oxirlaridan XX-asr boshlariga qadar bo'lgan davr), sobiq ittifoq davri (1920-yillardan 1991-yilgacha qadar bo'lgan davr) va hozirgi, ya'ni mustaqillik davri (1991-yildan keyingi davr). Jinoyat qonunchiligi rivojlanib borishi bilan o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish yoki undash uchun javobgarlik og'irlashtirilib, alohida kvalifikatsiyaviy holat sifatida qonunga kiritilganligini o'rganadi.

O'zbekiston tarixida o'zini o'zi o'ldirish shariat qonun qoidalari asosida qoralangan. Bunday qilmish shunchalik qattiq qoralanganki, birinchidan, dunyoviy qonunchilik asosida o'z joniga qasd qilish darajasiga yetkazish uchun jinoiy javobgarlikning huquqiy mustahkamlanishiga sabab bo'lib xizmat qilgan bo'lsa, ikkinchidan, o'z joniga qasd qilishga undash to'g'risidagi jinoyat huquqi normasining paydo bo'lishi va rivojlanishi uchun zarur shart bo'lib xizmat qilgan. Natijada ilk bor o'zini o'zi o'ldirishi darajasiga yetkazish uchun maxsus javobgarlik sobiq Ittifoq davrida qabul qilingan Jinoyat kodeksida belgilanishiga erishilgan. Zotan, mazkur qilmish uchun ilk bor O'zbekiston SSRning 1926-yildagi Jinoyat kodeksida javobgarlik nazarda tutilgan.

Muallif o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish bo'yicha MDH davlatlari Jinoyat kodeksining normalari asosan namunaviy Jinoyat kodeksining qoidalarini hisobga olgan holda ishlab chiqilganligi, shu bilan birga, inson hayotini jinoiy-huquqiy himoya qilish tajribasi, ushbu sohadagi jinoiy javobgarlikning alohida jihatlari bir-biridan farq qilishini ta'kidlaydi.

Shunday qilib tadqiqotchi, o'z joniga suiqasd qilishga falsafa va huquq tarixida berilgan baholarning qisqacha tahlili quyidagi xulosalarga kelish imkonini berishini ta'kidlaydi. Jumladan:

Birinchidan, o'z joniga suiqasd qilish qadim zamonlardan beri mavjud bo'lgan ijtimoiy muammolardan biridir. Suitsid munosabat, uning sabablari va texnologiyasi

qadim zamonlardan boshlab u yoki bu jamiyat, ijtimoiy guruh, etnik birlik yoki muayyan millatning madaniyati o‘lim tushunchasini qanday idrok etgani bilan bog‘liqdir.

Ikkinchidan, jahonda ayniqsa, keng tarqalgan dinlar: xristianlik, islom va buddizmda o‘z joniga suiqasd qilish axloqqa zid va Xudoning izmiga qarshi bo‘lgan qilmish sifatida taqiqlanadi. Bunda, xristianlik va islomning kuchli ta’siri ostida, o‘rta asrlar feodal qonunchiligi suitsidni og‘ir jinoyatlar qatoriga kiritgan.

Uchinchidan, oradan uzoq vaqt o‘tgach, XIX-asr – XX-asr boshlariga kelib, qonunchilikda o‘z joniga suiqasd qilishning tarkibidan yangi jinoyat tarkibi – o‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazish ajralib chiqib boshlaydi. Vaqt o‘tishi bilan jinoyat qonunida o‘z joniga suiqasd qilish uchun jinoiy javobgarlikdan voz kechiladi va o‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazish uchun javobgarlik o‘rnatiladi.

Dissertant mazkur bobda voyaga yetmaganlarni o‘zini o‘ldirish darajasiga yetkazish va undashdan tashqari o‘zini o‘zi o‘ldirishni targ‘ib qilish harakatlarini ham kriminalizatsiya qilish zarurati mavjudligini asoslagan va O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining I - Hayotga qarshi jinoyatlar bobini 103²-moddasi bilan to‘ldirishni taklif qilgan.

Dissertatsiyaning **“Voyaga yetmaganlarni o‘z joniga qasd qilish darajasiga yetkazish yoki undashning sabablari, unga imkon bergan shart-sharoitlar”** nomli ikkinchi bobida voyaga yetmaganlarni o‘z joniga qasd qilishning kelib chiqish sabablari va uning imkon bergan shart-sharoitlarning xususiyatlari; voyaga yetmaganlarni o‘z joniga qasd qilish darajasiga yetkazish va undagan jinoyatchi shaxsining kriminologik hamda voyaga yetmaganlarni o‘zini joniga qasd qilishning viktimologik tavsifi tahlil etilgan.

Muallif mazkur bobda aynan voyaga yetmaganlarning o‘z joniga qasd qilish holatlarini statistik ma’lumotlar orqali tahlil qilib (2016-2023), unda hayotga qarshi jinoyatlar, o‘zini o‘zi o‘ldirish darajasiga yetkazish va voyaga yetmaganlarni o‘zini o‘zi o‘ldirishga undash jinoyatlari o‘rtasidagi nisbat orqali taqqoslagan.

Tahlillar natijasida o‘z joniga qasd qilish va undash jinoyatlari sonida nisbatan barqarorlik sezilsa-da, biroq bunda voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etilgan aynan shu turdagi jinoyatlar ulushi ortib borayotganligini qayd etgan.

Muallif, raqamlarda aks etayotgan salbiy holatlarni oldini olish borasida shuningdek, g‘oyaviy, ma’naviy-ma’rifiy va vatanparvarlik tarbiyasida to‘g‘ri yo‘nalishni yo‘lga qo‘yish, bepul maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim olish imkoniyatini ta’minlash kabi bir qancha choralarni sanab o‘tadi.

Dissertant mazkur jinoyatlarni sodir etgan shaxslarni kriminologik portretini shakllantirish maqsadida, ularning demografik tahlilini amalga oshirishni muhim hisoblaydi.

Jumladan, 2021-yilda voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etilgan mazkur turkumdagi jinoyatlarning 29 nafarni tashkil etgan bo‘lsa, ularning 11 nafari yoshlar, 9 nafari ayollar va 14 nafari ish va mashg‘ulot turiga ega bo‘lmagan shaxslar tomonidan sodir etilgan. ushbu ko‘rsatkich 2022-yilda jami 20 nafar shaxsning 4 nafari ayollar tomonidan, 9 nafari yoshlar tomonidan va 10 nafari ish va mashg‘ulot turiga ega bo‘lmagan shaxslar tomonidan sodir etilgan. 2023-yilda o‘z navbatida

26 nafar voyaga yetmagan shaxslarni o'zini o'ldirish darajasiga yetkazgan 31 nafari esa shunday harakat qilishga undaganlik uchun javobgarlikka tortilgan bo'lsa, ularning 8 nafarini ayollar, 11 nafarini yoshlar va 13 nafarini ishsizlar tomonidan sodir etilganligi aniqlandi. Tahlil qilingan hisobot davrida muqaddam sudlanganlar tomonidan sodir etilishi ulushi oz ekanligi, shuningdek bu borada yoshlar hamda ishsizlar va ayollar ulushi sezilarli ravishda ortib borayotganligini ko'rsatmoqda¹.

Tadqiqotchi mazkur bobda, o'smirlarda ijtimoiy muammolarning kelib chiqish sabablari: oiladagi nosog'lom muhit; o'smirlarning turli jinoiy guruhlarga qo'shib qolishi; o'z-o'zini noto'g'ri anglashi; o'ziga nisbatan bo'lgan bahosining o'ta past yoki o'ta yuqoriligi; nosog'lom jinsiy rivojlanish; ijtimoiy rollarni noto'g'ri anglash va boshqalardan iborat ekanligini isbotlagan;

Dissertant voyaga yetmaganlarni o'z joniga qasd qilish darajasiga yetkazish va undashni sodir etgan jinoyatchi shaxsi – shaxs, ijtimoiylashuv jarayonida o'ziga jamiyatda o'rnatilgan odob-axloq normalari va qoidalarini mensimaydigan, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga bepisand, o'z xatti-harakatining jamoat xavfliligiga zid ekanligini bilishiga qaramay, ularga rioya qilmaslik va buzishga moyil bo'lgan xulq-atvorga egaligi bilan tavsiflanishi haqida xulosaga kelgan.

Muallif voyaga yetmaganlarni o'z joniga qasd qilish darajasiga yetkazish va undash jinoyatini sodir etgan jinoyatchi shaxsini o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha quyidagi turlarga ajratish mumkinligini ta'kidlaydi. Jumladan:

1. "Zo'ravon" – bu mavjud hayotiy sharoitlar tufayli tajovuzkor va zo'ravon xulq-atvorga ega bo'lgan, jabrlanuvchini qasddan, asossiz va muntazam ravishda qiynoqqa solib, uni o'z joniga qasd qilishga jismoniy va ruhiy majburlaydigan shaxs.

2. "Lider" – maqsadi doimo boshqalardan har taraflama ustun bo'lish, o'zga shaxslarga past nazar bilan qaraydigan, shuningdek, o'z fikri, harakatlari hamda ichki munosabatlarining to'g'riligiga ishonadigan va buni boshqalar ham tan olishlarini xohlaydigan, shu bilan birga jabrlanuvchining "qaram"ligidan foydalanadiganlardir.

3. "Hasadgo'y" – bu o'zgalarning yutuqlari va ustunliklarini hazm qila olmaydi va doimo bunga qarshi kurashadi, ya'ni o'zidan qaysidir sifati bilan ajralib turgan insonga yomonlik qilish payida bo'ladi yoki uni xohlashi bilan tavsiflanadi.

4. "Tovlamachi" – o'zgidan nomulkiy xususiyatga ega bo'lgan harakatni sodir etishga yoki sodir etishdan o'zini tiyishga majbur qilish maqsadida jabrlanuvchi yoki uning yaqin kishilariga zo'rlik ishlatish, mulkka shikast yetkazish yoki uni nobud qilish yoxud jabrlanuvchi uchun sir saqlanishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni oshkor qilishga qaratilgan harakatlarni amalga oshirish oqibatida ushbu jinoyatni sodir etishi bilan tavsiflanadi.

Mazkur bobda voyaga yetmaganlarni o'z joniga qasd qilishdagi jabrlanuvchi shaxsiga mualliflik ta'rifi berilgan. Jumladan, *voyaga yetmaganlarni o'z joniga qasd qilish darajasiga yetkazish jinoyatidan jabrlangan shaxs o'ziga nisbatan sodir etilgan rahmsizlik, zo'ravonlik, shantaj, tuhmat, qo'pol muomala yoki tahqirlanishlarga qarshilik ko'rsata olmaganligi oqibatida o'z joniga qasd qilgan shaxsdir.*

¹ O'zbekiston Respublikasi IIV Huquqiy statistika va tezkor-hisob ma'lumotlar markazining rasmiy statistik ma'lumotlari

Voyaga yetmaganlarni o'zini o'zi o'ldirishga undaganlik jinoyatidan jabrlanuvchi – bu tashqi salbiy omillarga yuqori ta'sirchanligi sababli boshqa shaxs tomonidan o'ziga nisbatan sodir etilgan rahmsizlik, zo'ravonlik, shantaj, tuhmat, qo'pol muomala yoki tahqirlanishlarga ma'lum sabab (ojizligi, qaramligi)larga ko'ra qarshilik ko'rsata olmaganligi oqibatida so'nggi chora sifatida o'z joniga qasd qilgan shaxs.

Muallif voyaga yetmaganlarni o'z joniga qasd qilish jinoyatidan jabrlanuvchilarni quyidagi toifalarini ajratib ko'rsatadi:

1. Voyaga yetmaganlar va yoshlar – o'zlarining yosh xususiyatlariga ko'ra, yetarli darajada harakat qila olmaydigan shaxslar toifasi sifatida atrof-muhit omillarini baholash, yuqori ta'sirchanlik hissiga ega ekanliklari bilan tavsiflanadi;

2. Voyaga yetmaganlar (shu jumladan yoshlar) – yosh xususiyatlariga ko'ra, atrof-dagi omillarni yetarlicha baholay olmaydigan, ta'sirchanligi yuqori bo'lgan ekanligi bilan tavsiflanadi;

3. Qarindosh yoki oila (ota, ona, aka, opa va boshq) – ushbu toifadagi qurbonlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular aybdor bilan yaqin o'zaro (maishiy, moddiy) munosabatlari tufayli yashashning choralari ko'rishga imkon topa olmasliklari bilan tavsiflanadi;

4. Aybdorga yaqin bo'lmagan, ammo vaziyat tufayli u bilan tanish bo'lgan shaxslar bo'lib, ular itoatkorligi, o'z-o'zini hurmat qilishi yuqoriligi tufayli ziddiyatli vaziyatlardan qochishning birdan bir chorasi o'lim degan qarorga kelishlari bilan tavsiflanadi.

Ishning **“Voyaga yetmaganlarni o'z joniga qasd qilish darajasiga yetkazish yoki undash jinoyatlari profilaktikasi va xorijiy davlatlar tajribasi”**, deb nomlangan uchinchi bobida tadqiqotchi voyaga yetmaganlarni o'z joniga qasd qilish darajasiga yetkazish va undash jinoyatlarining profilaktik choralari, voyaga yetmaganlarni o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish va undash jinoyatlarining profilaktikasiga doir ayrim xorijiy davlatlar amaliyotini o'rganib, mazkur jinoyatning oldini olish borasida tavsiyalarni beradi.

Muallif, voyaga yetmaganlarni o'zini o'ldirish darajasiga yetkazish va undash jinoyatlarini latentlik darajasi yuqori ekanligini suitsidal holatlarda jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish to'g'risida qabul qilingan qarorlar tahlilini amalga oshirgan holda aniqlagan. Ya'ni, 2021-yilda 902 ta suitsid holatlari yuz berganligi qayd etilgan bo'lsa, ulardan 52 ta holatda (5,7%) jinoyat ishi qo'zg'atilib tergov harakatlariga kirishilgan. 2022-yilda 1 010 ta suitsid holatida 37 ta jinoyati ishi (3,6%), 2023-yilda 1 056 ta holatda 42 ta jinoyat ishi (3,9%) qo'zg'atilganligi bu boradagi latentlik yuqori ekanligini asoslaydi.

Tadqiqotchi mazkur latentlikni so'rovnomalar orqali bir qancha sabablar (yaqin qarindoshlarni ko'rsatma berishni istmasliklari, tergovga qadar tekshiruvdagi qiyinchiliklar va boshqalar) yuqori ekanligini aniqlagan.

Tadqiqot natijasida, oilada turmush doirasida zo'rlikdan ko'pincha oilaning ojiz a'zolari, ya'ni ayollar, bolalar, qariyalar va nogironlar jabrlanadi. Xususan, zo'ravonlik natijasida jabrlanganlarning 57,4 foizini ayollar, 29,7 foizini voyaga yetmaganlar, 6,1 foizini qariyalar, 4,6 foizini erkaklar va 2,6 foizini nogironlar tashkil etmoqda. Shuningdek, tan jarohati

yetkazish bilan bog'liq jinoyatlardan jabrlanganlarning qariyb 60 foizini ayollar va bolalar tashkil etish aniqlangan.

Shuningdek, mazkur bobda O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksini bolalarning rivojlanishi va sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotlar to'g'risidagi qoidalarni buzganlik uchun ma'muriy javobgarlikni nazarda tutuvchi quyidagi 47⁶-modda bilan to'ldirish maqsadga muvofiqligini ta'kidlab uni quyidagicha:

47⁶-modda. Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish – “Bolalar o'rtasida ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborot mahsulotlarini tarqatishning belgilangan talablarini buzish” kabi dispozitiv normalar bilan to'ldirish lozimligini ta'kidlaydi.

Shu bilan birga mazkur kodeksni bolalar sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotlar to'g'risidagi qoidalarni buzganlik uchun ularning ota-onalari yoki qonuniy vakillariga nisbatan ma'muriy javobgarlikni nazarda tutuvchi quyidagi 47-moddasining beshinchi va oltinchi qismlar bilan to'ldirish ham lozim, degan xulosaga kelgan. Jumladan:

47-modda beshinchi qism. “Ota-onalar yoki qonuniy vakillar tomonidan bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazadigan axborotdan himoya qilishning tashkiliy choralarini ko'rmaslik, natijada voyaga yetmagan shaxsning suiqasd qilishi yoki vafot etishiga olib kelsa;

47-modda oltinchi qism. - voyaga yetmagan shaxsning g'ayriijtimoiy harakatlar sodir etishiga olib kelsa” kabi dispozitiv normalar bilan to'ldirish.

Tadqiqotchi voyaga yetmaganlarning viktimologik profilaktikasi chora-tadbirlariga quyidagilarni keltirib o'tadi:

o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish va undashdan jabrlanuvchilarga nisbatan shaxsning individual va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari hisobga olingan holda profilaktika tadbirlarini o'tkazish;

aholiga, shu jumladan o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish va undashdan jabrlanuvchilarga shaxslar o'rtasidagi nizolarni hal etish usullarini o'rgatish;

o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish va undashdan jabrlanuvchilarni aniqlash va himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlarni ko'rish;

o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish va undashdan jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatuvchi ixtisoslashtirilgan muassasalarni tashkil etish;

o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish va undashdan jabrlanuvchining jismoniy va psixologik xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan maxsus kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, uni qonunda nazarda tutilgan o'zini o'zi mudofaa qilish usullari va vositalari to'g'risida xabardor qilish;

g'ayriijtimoiy xulq-atvor nisbatan tez-tez kuzatiladigan yoki huquqbuzarliklar tez-tez sodir bo'lib turadigan joylarni (hududlarni) muntazam ravishda nazorat qilish;

hujum qilingan taqdirda zaruriy mudofaa va oxirgi zarurat haqidagi ma'lumotlarni keng tarqatish yo'li bilan aholiga huquqiy tarbiya va ta'lim berish;

jabrlanuvchilarga nisbatan o'tkazilayotgan turli xil tahdidlar, tazyiq, zo'ravonlik, sha'n va qadr qimmatni kamsitishga qaratilgan har qanday jabr-zulmlar to'g'risida axborot olish maqsadida huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organ yoki muassasa huzurida ishonch, tezkor aloqa telefonlarini, qutqaruv xizmatlarini tashkil etish;

profilaktika dasturlari va tadbirlari loyihalarining ommaviy muhokamalarini tashkil etish, ularni amalga oshirish jarayonida muammolar va kamchiliklarni aniqlash hamda

bartaraf etish maqsadida jahon Internet axborot tarmog'ida veb-saytlar, bloglar, chatlar tashkil qilish.

Muallif mazkur bobda voyaga yetmaganlarning o'z joniga qasd qilish darajasiga yetkazish yoki undash jinoyatlarining profilaktikasi bo'yicha xorij mamlakatlari, jumladan Buyuk Britaniya (Angliya, Shotlandiya), Shvetsariya, Shvetsiya, Yaponiya, Avstraliya, Kanada, Yangi Zelandiya, Janubiy Koreya, Xorvatiya, Singapur, Rossiya Federatsiyasi, Turkmaniston, Armaniston, Ukraina va Moldova kabi davlatlarda tajribasini o'rganib, bunda milliy qonunchiligimizda nazarda tutilmagan ayrim jihatlarni kontent tahlil qilgan. Xususan, Jahon Sog'liqni Saqlash va Birlashgan Millatlar Tashkilotlari joriy qilgan xalqaro suitsidal profilaktik me'yorlar bo'yicha tahlillarni o'tkazib, bunda qoidalar suitsidning global observatoriya xulosalariga asoslanishini, global umumiy ko'rsatkich 100 000 aholiga 14,03 dan 8,96 holatga o'zgargan, erkaklarning o'z joniga qasd qilish darajasining nisbiy soni 33% ga (100 000 aholiga 18,86 dan 12,61 gacha) va ayollarning o'z joniga qasd qilish darajasi 43% ga (100 000 aholiga 9,54 dan 5,44 gacha) kamaygan. Amerika qit'asidan tashqari barcha mintaqalarda o'z joniga qasd qilish darajasi Sharqda 17% dan Yevropada 47% gacha kamayganini ko'rish mumkin¹.

